

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TA‘LIM TIZIMINING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARINI 4 K MODELI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Otamurodova Dilfuza Otamurod qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi”
kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14884137>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta‘lim tizimining muammolari va istiqbollarini 4 k modeli asosida shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuning bilan bir qatorda hozirgi ta‘lim tizimidagi muommolar o‘quvchi nutqi,uning mustaqil fikrini bildirga olishiga, kreativ,tandidiy fikrlashiga doir to‘g‘risida yozilgan. Hamkorlikda ishlash muvoffaqiyatni hamda muvoffaqiyatsizlikni birgalikda his qilishni o‘rgatadi.Shuningdek o‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlariga ajratayotganda nimalarga e’tibor berishi kerakligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek ta‘lim tizimining istiqbollarini 4 K modeli asosida shakllantirish.

Kalit soʻz: Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari, taʼlim tizimining muommolari, taʼlim tizimining istiqbollari, 4 K modeli.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. Mazkur baholash tizimi ta‘lim jarayonining barcha qatnashchilariga maqsadli yondashishni o‘rgatadi. Uning an‘anaviy baholash tizimidan farqli tomoni subyektivlik, nisbiylikka asoslanmaganligidir. Baholash materiallari ham Davlat ta‘lim standartlari talablari asosidagi ta‘limiy maqsadlarga erishilganlik darajasini tekshirishga qaratilgan bo‘ladi. Xususan, tizim o‘qituvchilar darsga tayyorgarlik ko‘rayotganlarida ta‘limiy maqsadni aniq belgilab olishlariga yordam beradi. Har bir bo‘lajak o‘qituvchi, mutaxassisligi va faoliyatidan qat‘iy nazar, fundamental bilim, kasbiy mahorat hamda muayyan tajribaga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lish uchun bo‘lajak mutaxassis o‘z sohasida, agar ushbu sohaga tegishli muammo yoki savollar tug‘ilsa, uni o‘z nuqtayi nazari va ijodiy faoliyati asosida hal qilishi, xususan, o‘z tadqiqotlari va tajribasini yangi bosqichga ko‘tarishi mumkin. Chunki oliy o‘quv yurtlarida talabalarning yuqori darajadagi tayyorgarligi va axloqiga talab ham yuqoridir. O‘qituvchi ijtimoiy fanlar sohasidagi yangi pedagogik usullarni aniqlay olishi va ulardan samarali foydalanishi kerak.

Hammaga ma'lumki keyingi yillarda ta'lim sohasida juda katta islohatlar kitoblarning mazmuni, o'qituvchi faoliyati, integratsion o'quvchi kreativ fikrlashi, kommunikativligi, o'zaro kolkaboratsiya, kritik fikrlash ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Integratsion dars natijalari talabalarga kelajak haqidagi orzularini, shaxsiyatini shakllantirish va kasb tanlashda aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Chunki, boshlang'ich ta'lim jarayonida talabalar boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning yangi turiga kirishadilar. 1–4-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash ularda barqarorlikni oshirish, diqqatni jamlash va ixtiyoriy xotiraning yuqori darajasini shakllantirishga yordam beradi. Matematik qo'shimchalar, bo'linishlar, mantiqiy to'g'ri so'zlardan foydalanish bilan tushuntirish, rangli hamda turli ranglarda bo'yalgan narsalar o'quvchilar darslarning turli bosqichlarida topshiriqlarni bajarayotganda o'quv materiallarini tushunishning samarali usullari hisoblanadi. Natijada, talabalar ma'naviy qadriyatlarga ega bo'ladilar, axloqiy tuyg'ularini rivojlantiradilar, g'alaba qozonish uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi hamda izlanishlar orqali qiziqarli darslar jarayonida turli xil o'quv vazifalarini bajaradi. Ushbu davrda ular o'zlarining yutuqlari xatti-harakatlariga qarab qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga intilishadi. Dars jarayonida uning muayyan bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish, o'rganishga intilish, intellektual rivojlanish va o'z kuchiga ishonishni anglatadi. Ma'lumki, integratsiya – bu sintez, yangisining paydo bo'lishini anglatadi. Yangilikning paydo bo'lishi juda murakkab hisoblangan bilish jarayonidir, shuning uchun integratsion darsni o'tkazish yoki aniqlashni tayyorlash uzoq va maxsus jarayon



sanaladi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan esa integratsiyani individual tizimlarning (mavzular, talabalar bilimlari) bir butunga yaqinlashishi va aloqasi, ya'ni sintezi, yangilikning paydo bo'lishi sifatida qaraymiz. Teng sharoitlarda ishlaydigan turli xil, ammo yaqin ta'lim sohalarining kombinatsiyasi, shuningdek, ulardan biri o'ziga xoslikni saqlaydigan, boshqalari esa yordamchi asos bo'lib xizmat qiladigan yaqin ta'lim sohalarining subyektlari bo'lishi mumkin. Bitta fan negizida, asosan bitta ta'lim sohasi yoki blokdan iborat o'quv fanlarini birlashtirish lozim. Bilamizki, o'quv jarayonining o'zgaruvchan qismi masofaviy ta'lim sohalaridagi fanlarni birlashtirgan integratsion kurslarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bunda keyingi mavzu avvalgisidan kelib chiqadigan integratsiya bo'lishi mumkin. Quyida integratsion muhit darajalari keltirilgan: birinchi daraja – tabiiy fanlar va gumanitar madaniyatlarning integratsiyasini ifodalab, o'quv fanlarini birlashtirish, ularning o'zaro ta'sirida borliq fanlariga yaxlit qarashlarni, obyektlarning ma'naviy salohiyatini ochib berishga yondashuvlarni izlash muhimdir; ikkinchi daraja – o'rganilayotgan fanlarning rivojlanishi asosidagi integratsiyasi o'quv jarayonida fanlararo xarakterdagi yetakchi tushunchalarni shakllantirishning yagona dasturlarida, o'qituvchilar metodikasida namoyon bo'ladi. Bunday ishlarni o'quv kurslarining asosiy yo'nalishlarini ajratish asosida amalga oshirish mumkin; uchinchi daraja – nafaqat ma'lum bir mavzuni, balki o'quv fanlari o'rtasidagi munosabatlarning "gorizontal" tuzilmalarini amalga oshirish asosida obyektlar siklining amaliy yo'nalishini amalga oshirish va kuchaytirish orqali integratsiyalashdir. Ta'lim oluvchilar uchun inson faoliyati, moddiy va ijtimoiy voqelikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Bu o'qituvchining to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarning subyektiv tajribasiga va uning tushunchasiga keng murojaat qilishini o'z ichiga oladi. Integratsion dars – bitta tushuncha, mavzu yoki hodisani o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlardan o'rganishni birlashtiradigan maxsus dars turi hisoblanadi. Integrativ vazifa esa o'quv vazifasining bir turidir. Uning o'ziga xos xususiyati turli xil fanlar, turli xil o'quv dasturlari, mavzular, muammolar haqidagi bilim va ko'nikmalarni sintez qilish, ularni bir masala, bitta muammoni hal qilish, bitta obyekt yoki bir nechta obyektни bilish uchun birlashtirishdir. Umuman olganda, integral topshiriqlar fanlararo, sikllararo yoki o'quvchilarning nazariyasi va shaxsiy tajribasini bog'lash sifatida ishlab chiqilgan. Dunyo mamlakatlari ta'lim jarayonida bugungi kun talablari asosida ta'lim va tarbiyani amalga oshirish jarayoni kechmoqda bunda ayniqsa, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qabul qilingan. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limning yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Mazkur masalada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Bu borada dunyo mamlakatlari ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikning kuchayganligi muhim ahamiyatga ega[3]. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar va takomillashtirilardan foydalanish vositasida mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini talab darajasida tarkib toptirish muhimdir. Osiyo, Yevropa va AQShning rivojlangan mamlakatlar safidan o'rin olishida ushbu mamlakatlar universitetlarida zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalar yutuqlarining qo'llanishi asosiy rol o'ynagan. Ularning fan, texnika-texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan tezda o'zib ketganligining sababi shundaki, avvalo, ushbu mamlakatlarda erkin va ijodiy fikr qadrlanadi. Har bir insonga noyob iste'dod egasi deb qaraladi.

Globalashuv jarayonida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ilm-fan, yangi texnika-texnologiyalar rivoji muhim rol o'ynaydi. Quvonarlisi shuki, mamlakatimiz rahbariyati ushbu sohalarga katta e'tibor qaratmoqda.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, mamlakatimizga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishimiz lozim. Hozir oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O'zbekistonga olib kelib ma'ruza o'qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o'quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ularning darsliklari, o'quv standartlari tajriba sifatida qo'llanilmoqda. Bu albatta, yaxshi tashabbus va shu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirishimiz lozim. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilish borasida xorijiy mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Shvetsiya, AQSh)ning tajribalari O'zbekiston oliy



ta'lim tizimidagi holatlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Bu o'rinda ilg'or mamlakatlarning oliy o'quv dargohlari bilan xalqaro ilmiy-pedagogik aloqalarni rivojlantirish, xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish, xalqaro loyiha va dasturlarda qatnashish uchun buyurtmalar berish, mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga qo'shilishini faollashtirish maqsadida olimlar va pedagoglar bilan o'zaro fikr almashinuv jarayonini kuchaytirish lozim. Ko'plab mamlakatlarning universitetlarida xalqaro dasturlar, grantlar sohibi sifatida taklif bilan qatnashib, ma'ruzalar qilganman. Chet ellardagi ko'plab iste'dodli o'zbek yosh olimlarini taniyman. Ular bugungi kunda Osiyo, Yevropa, AQSh universitetlarida magistraturani tugatib, ilmiy ishlarini davom ettirib, fan doktorlari bo'lib, o'sha mamlakat universitetlarida, ilmiy-tekshirish institutlarida samarali faoliyat ko'rsatishmoqda. O'zbekistonning salohiyatini jahonga tanishtirishmoqda. Ular bilan har qancha faxrlansak arziydi. 2016 yili Olmatada qishloq xo'jaligi muammolariga bag'ishlangan Xalqaro konferentsiyada ma'ruzam bilan qatnashgandim. Konferentsiyada ushbu sohada rivojlangan xorij mamlakatlari universitetlarida, ilmiy markazlarida samarali faoliyat qilayotgan o'nlab yosh olimlarimiz bilan tanishdim. Birgina Vashingtondagi Xalqaro oziq-ovqat ilmiy tekshirish instituti (IFPRI)dan kelgan uch nafar yosh fan doktori mazmunli ma'ruzalar qilishdi va konferentsiya raisligini ham olib borishdi.

Bugungi kun ta'lim tizimida har sohada yangiliklar shiddat bilan kirib kelmoqda. Bulardan biri "4K" modeli ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida 4K modelidan foydalanishda o'quvchilarning tanqidiy fikrlasga, o'z fikrini erkin bayon etishga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyni o'z ichiga oladi. 4K yondashuvi o'quvchilar olayotgan bilimlarini yanada mukamalliroq, to'liqroq, anig'iroq egallashlari uchun zamin yaratadi. Shuningdek o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga ham e'tibor qaratadi. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. SHuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi" bularni har birini mukammallashtirishimiz uchun 4K modeli bizga asos bo'lib xizmat qila oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Тожибоева Дилором (2018). Таълимга ёндашувлар ва модуль асосида ўқитишнинг тутган ўрни. Современное образование (Ўзбекистан)
2. Yuldashevich, M. A. (2020). SHAPING OF THE HEALTHY LIFESTYLE CULTURE IN PHYSICAL EDUCATION FOR OUR FUTURE TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences,
3. Abdullayeva K.R. Xalq pedagogikasi vositasida o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari. Diss. Namangan. 2023.
4. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O 'QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.